



**“METODIK MAHORAT KUNI” VA “METODIK MAHORAT SOATI” TADBIRI.
MAY OYI “MAISHIY ASBOB-USKUNALAR — BIZNING YORDAMCHIMIZ” DEB
NOMLANGAN HAFTALIGINI O‘TKAZISH BO‘YICHA TAVSIYALAR**

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari
direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti dotsenti M.Z.Fayzullayeva*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15255217>

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirining may oyi “Maishiy asbob-uskunalar — bizning yordamchimiz” deb nomlangan haftaligini o‘tkazish bo‘yicha bolalarga beriladigan bilimlar mazmuni, mavzular asosida tavsiyalar yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: “Metodik mahorat kuni”, “Metodik mahorat soati”, halol mehnat, mehnat qurollari, ketmon, belkurak, chelak, tasha, vazifalari, kishilar mehnati, yengillashtirish, unumli ishlash, joy-joyiga yig‘ishtirish, ozoda va tartibli, saqlash, ko‘nikma, dazmol, chang yutkich, muzlatkich.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy rivojlanishi uzluksizligini ta'minlash, kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini muntazam oshirib borish maqsadida tashkil etilib kelinib, tadbir davomida tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlarida trener (mentor)lar tomonidan yetakchi pedagoglarni maqsadli tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o‘z bilimini muntazam boyitib borish uchun o‘quv- seminar, trening, mahorat darslari tashkil etilyapti.

Bugungi kunda tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlarida trener (mentor)lar tomonidan «Maishiy asbob-uskunalar — bizning yordamchimiz» deb nomlangan haftaligini o‘tkazish bo‘yicha pedagoglarning kasbiy mahoratlarini oshirish uchun o‘quv- seminar, trening, mahorat darslari tashkil ishlari qizg‘in ketyapti.

Biz may oyi “Maishiy asbob-uskunalar — bizning yordamchimiz” deb nomlangan haftaligini o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalarni ilova qilamiz.

Ma'lumki, may oyi “Maishiy asbob-uskunalar — bizning yordamchimiz” deb nomlangan haftaligi mazmunida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishiga e'tibor qaratilishi, ularning halol mehnat, mehnat qurollari, ularning vazifalari, mehnat qurollari kishilar mehnatini yengillashtirishi, mehnat qurollari yordamida ish unumli bo‘lishi, mehnat qurollarini joy-joyiga yig‘ishtirib qo‘yish, mehnat qurollarini ozoda va tartibli saqlash kabi muhim ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlariga zamin yaratadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga “Maishiy asbob-uskunalar — bizning yordamchimiz” haqida quyidagi ma'lumotlarni ta'limiy faoliyatlarda, davra suhbatlarida mehnat qurollari, ularning vazifalari haqida ma'lumot beriladi:

Ketmon- yerni chopish, yumshatish, egat olishda ishlatiladi.

Belkurak- yerni chopish, yumshatish, ko‘chat ekishda chuqur qazishda ishlatiladi.

Chelak- o‘simliklarni sug‘orishda, suv tashish, suv quyishda, sabzovotlarni yig‘ishda ishlatiladi

Tasha – chopiq qilishda, o‘toq qilishda, chuqurcha olishda ishlatiladi. Bu mehnat qurollarini tartibli, ozoda saqlashimiz kerak.

Ularni shunday joylashtirish lozimki, ularni olish, ulardan foydalanish, tartibga keltirish va joyiga qo‘yish sizga qulay bo‘lsin. Hamma asboboblarni ko‘rinadigan qilib joylashtirish shart emas: nima qayerdaligini bilsangiz va asbobni mustaqil olib foydalana olsangiz shuni o‘zi kifoyadir. Shunda biz mehnat qurollarini tartibli saqlash va ulardan o‘rinli foydalana olishga o‘rganamiz.

4-hafta. Bizning yordamchilarimiz maishiy asboblari



Mavzu: Xo'jalik mehnat qurollari bilan tanishtirish. (Ketmon, belkurak, chelak, tesha)

Maqsad: bola kattalarning nutqini tinglaydi va tushunadi, ular kattalarga murojaat qiladi, rasmda ko'rgan narsasi haqida so'zlaydi, berilgan savollarga tortinmasdan javob beradi, muloqot davrida faollik bildiradi. Bolalar lug'ati mehnat qurollari: ketmon, belkurak, chelak, tesha va ularning vazifalari haqidagi so'zlar bilan boyiydi.

Kerakli jihozlar: "Xo'jalik mehnat qurollari" o'yinchoqlar to'plami. ketmon, belkurak, chelak, tesha tasvirlangan rasmlar.

Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: bolalar bugun biz mehnat qurollari, ularning vazifalari haqida suhbatlashamiz. Bu ketmon.

Ketmon- yerni chopish, yumshatish, egat olishda ishlatiladi.

Bu belkurak. Belkurak- yerni chopish, yumshatish, ko'chat ekishda chuqur qazishda ishlatiladi.

Bu chelak. Chelak- o'simliklarni sug'orishda, suv tashish, suv quyishda, sabzovotlarni yig'ishda ishlatiladi

Bu tesha. Tesha – chopiq qilishda, o'toq qilishda, egatlarga chuqurcha qazishda ishlatiladi. Bu mehnat qurollarini tartibli, ozoda saqlashimiz kerak.

Bu xaskash. Yirik kesaklar xaskash yordamida maydalanib bir yo'la yer tekislab olinadi.

Ularni shunday joylashtirish lozimki, ularni olish, ulardan foydalanish, tartibga keltirish va joyiga qo'yish sizga qulay bo'lsin. Hamma asboboblarni ko'rinadigan qilib joylashtirish shart emas: nima qayerdaligini bilsangiz va asbobni mustaqil olib foydalana olsangiz shuni o'zi kifoyadir. Shunda biz mehnat qurollarini tartibli saqlash va ulardan o'rinni foydalana olishga o'rganamiz.

Tarbiyachilarga eslatma: Tarbiyachi asbobni tanlar ekan, o'z guruhidagi bolalarning yoshlarini, ishlarining mazmunini albatta hisobga olishi lozim. Masalan, bolalar mehnatda endigina qisman ishtirok eta boshlaydigan kichik guruhlarda o'yinchoqlarga o'xshash bo'lgan mehnat predmetlaridan foydalanish mumkin.

Bolalarga ko'p kuch sarflaydilar mehnat qurollarini bermaslik kerak. Bunday yo'lda bolalar tez charchab qoladilar va ularda mehnat qilish ishtiyoqi so'nadi.

Jismoniy daqiqa

Qo'shimcha: she'r aytish

Alohida e'tibor qaratiladi: So'zlayotganlarida so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish

Bolalar bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:

Tarbiyachi: bolalar bugun biz mehnat qurollari, ularning vazifalari haqida suhbatlashamiz. Bu ketmon.

Ketmon- qayerda ishlatiladi?

Belkurak- qayerda ishlatiladi?

Paqir nima uchun kerak?

Tesha – qayerda ishlatiladi?

Mehnat qurollari qanday saqlanishi kerak?

4-hafta. Bizning yordamchilarimiz maishiy asboblari

Mavzu: Elektr jihozlari bilan tanishtirish (dazmol, chang yutkich, muzlatkich).

Maqsad:

"Nutq va til":

"Elektr jihozlari: dazmol, chang yutkich, muzlatkich haqida so'zlash bilan bolalarning monologik nutqini rivojlantirish, gapirganda so'zlarni bir-biriga bog'lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

So'zlayotganda so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, mantiqiy izchillikda tasviriy hikoya tuzish ko'nikmalarini shakllantirish.



Bolalar tarbiyachining savollari bo'yicha hamda suratlariga qarab mazmunan so'zlab berishga o'rgatish.

Intelktual-bilish malakalari

Bolalarning elektr jihozlari:dazmol, chang yutkich, muzlatkich haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Hissiyotlar va ularni boshqarish

Uyda yolg'iz qolganda vat'iyani taqiqlangan narsalar: gugurt, gaz plitasini yoqish, pechka yoqish, elektr rozetkalari va elektr jihozlari, dazmol, chang yutkich, muzlatkich kabi jihozlarga yaqinlashmaslikni tushuntirish.

Kerakli jihozlar:Elektr jihozlari:dazmol, chang yutkich, muzlatkichlar, o'yinchoqlari va ular tasvirlangan rasmlar.

Ta'limiy faoliyatning borishi:

Tarbiyachi bolalarga elektr jihozlari va ularning nima uchun kerakligi, elektr rozetkalari va elektr jihozlaridan faqatgina kattalar foydalanishi mumkinligi, bolalarning foydalanishlari qat'iyani man qilinganligi haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

Asosiy qism.

- 1.“Elektr jihozlari” mavzusi bo'yicha suratni ko'rib chiqish.
- 2.Surat bo'yicha savol-javob o'tkazish.
3. Elektr jihozlari haqida topishmoqlar aytish.
4. Jismoniy daqiqa.

Bolalar bir qator bo'lib tizilib turadilar. Safda birinchi turgan bola rezetka, safdagi oxirgi bola lampochka, qolgan bolalar sim bo'ladilar.Safdagi bolalar navbati bilan o'tiradilar, turadilar va bu bilan to'liqsimon harakatni ifodalaydilar. “Tok” oxirgi bolaga yetib kelganda lampochka qo'lini ko'taradi.

5. “Elektr jihozlari” mavzusida pazl o'yinlari.

6.**Yakuniy qism.** Bolalar tuzgan hikoyalar, aytilgan she'rlarni muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: "Elektr jihozlari" mavzusida vidiorolik ko'rsatish.

Alohida e'tibor qaratiladi: Bolalar so'zlayotganlarida so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish ko'nikmalari shakllanganligiga e'tibor berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.
2. Grosheva I.V., Evstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr”. Toshkent, 2022-y.
3. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh.,Rizayeva X.U., Kuryayeva I.V., Nekrasova Y.A., Shivaldova N.S., Xaziyeva L.Z. “Yer sayyorasi – umumiy uyimiz” Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun parsial dastur . – T.: 2022-y.
4. D.T.Maxmudova va boshqalar “Tabiat bilan tanishtirish metodikasi”, Toshkent, 2019 y.
- 5.Nigmatov A.N., Muxamedov SH.N. “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ekologik ong va madaniyatni shakllantirish”. T., 2020.